

Date: 21st January-2026

**MUSTAQILLIK DAVRIDA NAMANGAN VILOYATIDA OMMAVIY
TADBIRLARNING TARIXI**

Mullajonova Arofatbonu Baxodir qizi

Namangan davlat universiteti Tarix yoʻnalishi 2-kurs magistranti

e-mail:arofatbonum@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng Namangan viloyatida ommaviy tadbirlarni tashkil etishning shakllanish va rivojlanish bosqichlari ilmiy-tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Ommaviy tadbirlarning nafaqat koʻngilochar, balki kuchli mafkuraviy va maʼnaviy-maʼrifiy vositaga aylanganini haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: madaniy meros, mashrabxonlik, sport musobaqalari, Universiada-2000, Xalqaro festivallar, “Gullar bayrami”, “Xalqaro asal festivali”, “Xonatlas festivali”, bayram tantanalari.

**HISTORY OF MASS EVENTS IN NAMANGAN REGION DURING THE YEARS
OF INDEPENDENCE.**

Abstract: This article provides a scientific and historical analysis of the formation and development stages of organizing mass events in the Namangan region after Uzbekistan gained independence. It highlights that mass events have evolved beyond simple entertainment to become powerful ideological, spiritual, and educational tools. The study examines the role of these events in strengthening social values and promoting the region's cultural identity.

Keywords: cultural heritage, Mashrabkhonlik (Mashrab readings), sports competitions, Universiade-2000, international festivals, “Flowers Festival”, “International Honey Festival”, “Khan-atlas Festival”, holiday celebrations.

**ИСТОРИЯ ПРОВЕДЕНИЯ МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В
НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ.**

Аннотация: В данной статье представлен научно-исторический анализ этапов формирования и развития организации массовых мероприятий в Наманганской области после обретения Узбекистаном независимости. Рассматривается трансформация массовых мероприятий из формы досуга в мощный идеологический и духовно-просветительский инструмент. Описывается их роль в укреплении национальных ценностей и продвижении культурного наследия региона.

Ключевые слова: культурное наследие, Машрабхонлик, спортивные состязания, Универсиада-2000, международные фестивали, «Праздник цветов», «Международный фестиваль мёда», «Фестиваль хан-атласа», праздничные торжества.



Kirish

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan madaniy-ma'naviy sohada tub islohotlar amalga oshirildi. Milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash va xalqning ijtimoiy faolligini oshirishda ommaviy tadbirlar muhim vositaga aylandi. Shu jarayonda Namangan viloyati o'zining boy madaniy merosi va an'anaviy bayramlari bilan alohida ajralib turadi. Mustaqillik yillarida viloyatda o'tkazilgan ommaviy tadbirlar mazmunan yangilanib, milliylik va zamonaviylik uyg'unligida tashkil etila boshlandi. Navro'z umumxalq bayrami, Mustaqillik kuni tantanalari, "Gul bayrami", "Xonatlas festivali", "Xalqaro asal festivali" kabi tadbirlar nafaqat madaniy hayotning muhim qismi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga xizmat qiluvchi omilga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslanildi. Maqolada tarixiy-taqqoslash, tizimli tahlil va mantiqiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, viloyat hokimligi qarorlari, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu metodlar ommaviy tadbirlarning shakllanish bosqichlari va mazmuniy o'zgarishlarini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Mazkur tadqiqot ishini tayyorlash jarayonida Namanganda o'tkazilayotgan mahalliy va xalqaro ommaviy tadbirlarga oid turli manbalar o'rganildi. Namangan viloyat davlat arxivining materiallari, Z.Xaydarovning Namangan tarixiga oid ilmiy asarlari, davriy nashrlar va internet manbalari tahlil etildi. Ushbu tadqiqotda Namanganda tashkil etilayotgan barcha turdagi ommaviy tadbirlar tarixini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili asosiy metod sifatida qo'llanildi.

Muhokama

Mustaqillik qo'lga kiritilgan kundan boshlab Namangan viloyatida ham ko'plab ommaviy tadbirlarni tashkil etish, milliy qadriyat va urf-odatlarini tiklash ishlari boshlangan. Xususan, 1993-yil 23-may kuni Namangan shahrining Sardoba dahasida viloyat hokimining 1993-yil fevral oyidagi Farmoyishi bilan o'zbek xalqining ma'naviy merosini o'rganish, uni to'plash, kelgusi avlodga yetkazish maqsadida "Meros" ilmiy-ma'rifiy markazi ochildi. Markaz ko'rgazma zallarida viloyat hududida yashab ijod etgan IX asrdan hozirgacha ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan shoir va yozuvchilar, xattotlar va sahhoflardan iborat 43 nafar ulug' siymolar asarlaridan na'munalar qo'yilgan. Shuningdek, Namangan shahrining G'irvonsaroy mavzesida tashkil etilgan milliy bog'da namanganlik shoir Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligiga bag'ishlab o'rta asr sharq me'morchiligiga xos uslubda Mashrab uy-muzeyi qurilib, 1992-yil 23-mayda topshirildi. Viloyat Hokimligining qaroriga asosan 1993-yildan e'tiboran har yili may oyida ushbu ma'naviyat maskanida an'anaviy "Mashrabxonlik kuni" o'tkazib kelinmoqda [4;110-b]. Mustaqillik yillarining boshlarida Namanganda Alisher Navoiy nomli viloyat musiqali drama teatri ma'muriyati tomonidan ko'plab ijodiy tadbirlar amalga oshirildi. Chunonchi,



Date: 21st January-2026



statsionarda muttasil tomoshalar ko'rsatish maqsadida haftaning ikki kunini yosh tomoshabinlarga ajratildi. Bir kuni o'smirlar uchun va yana bir kuni esa turli xil tadbirlar va uchrashuvlar uchun ajratildi. Teatr jamoasi ijodiy uchrashuvlar, viloyatning ko'zga ko'ringan faollarining yubileylari, korxona va tashkilotlarning kechalarini o'tkazishda samarali mehnat qildi. 2006-yildan e'tiboran, viloyatda milliy-mumtoz musiqa kuy-qo'shiqlarini yoshlarga targ'ib qilish maqsadida "Tasanno" jonli ijro bellashuvi tashkil etilgan. Mazkur tadbirni Alisher Navoiy nomli musiqali drama va komediya teatri hamda viloyat teleradiokompaniyasi hamkorligida amalga oshiriladigan bo'lgan [4;118-b].

Yurtimizda mustaqillikning ilk davrlaridanoq bolalar sportini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada, ayniqsa, dunyoda o'xshashi bo'lmagan uch bosqichli noyob tizim – "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqalari bo'lajak yetuk sportchilar uchun o'ziga xos pillapoya vazifasini o'tamoqda. "Universiada" sport o'yinlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uch bosqichli sport musobaqalari 2000-yili Universiada bilan Namanganda boshlangan edi. Ushbu musobaqada 15 terma jamoa ishtirok etdi. Ishtirokchilari soni ko'p bo'lganligi sababli Toshkent shahri ikkita jamoa bilan qatnashdi. Musobaqa yakuniga Namangan viloyati terma jamoasi hammadan ko'p medalga ega bo'lgan holda birinchi o'rinni egalladi. Birinchi "Universiada" sport musobaqalarida 1400 nafarga yaqin sportchilar ishtirok etishdi [9]. Shuningdek, Namangan viloyat hokimining 2001-yil 26-noyabrdagi "Viloyat ayollar futbolini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 248-sonli qaroriga asosan Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining 2001-yil 18-dekabrda "Viloyatda o'quvchi qizlar o'rtasida futbolni rivojlantirish to'g'risida"gi 210/1-A sonli buyrug'i qabul qilinib, 2002-yil yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchi qizlari va bolalar va o'smirlar sport maktablarida qizlar futbol guruhlarining tashkil etildi, ushbu buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida 15-mart kuni 4 ta hududda qizlar futboli musabogasi tashkil etildi. Unda 1-o'rin Yangiqo'rg'on tumani, 2-o'rin Namangan tumani, 3-o'rin To'raqo'rg'on tumani, 4-o'rin Uychi tumani qizlar jamoalari egalladilar [2;108-b]. Xususan, 2010-yil mobaynida viloyatda jami 258 dan ortiq ommaviy sport tadbirlari o'tkazilgan bo'lib, ushbu tadbirlarda 457243 nafar sportchilar ishtirok etishdi. Shundan 181709 nafarini qizlar tashkil etdi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida viloyat bo'yicha 186 tadan ortiq sport musobaqalari o'tkazilgan bo'lsa, bu musobaqalarda 129113 nafar sportchilar ishtirok etishdi. Yil mobaynida jami 834 ta medal qo'lga kiritilgan bo'lib, shundan 239 tasi oltin, 255 tasi kumush, 340 tasi bronzani tashkil etgan [4;124-b].

Binobarin, namanganliklarning gulga bo'lgan mehri va tabiatni go'zallashtirishga intilishi adabiy va tarixiy manbalarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar tabiati tasvirlanar ekan, lolaning 200 dan ortiq turi mavjudligi alohida qayd etiladi. Bu kabi ma'lumotlar mintaqa tabiatining boyligi, gullar xilma-xilligi va ularning madaniy-estetik ahamiyati qadimdan yuksak bo'lganini ko'rsatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Namanganda gulchilik an'analari yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 1961-yil 24–27 avgust kunlari shaharda ilk bor gul ko'rgazmasining tashkil etilishi mazkur

Date: 21st January-2026



jarayonning muhim boshlanish nuqtasi bo'ldi. Keyinchalik ushbu tadbir ommaviy gul bayrami sifatida an'anaga aylanib, shaharning ijtimoiy-madaniy hayotida alohida o'rin egalladi. So'nggi yillarda esa bog'dorchilik, gulchilik va har yili o'tkazilayotgan an'anaviy "Gullar festivali" nafaqat mahalliy-madaniy an'ana, balki hududning madaniy brendi sifatida shakllanib, xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan madaniy hodisaga aylandi [3;239-b]. Bayram tantanalari may oyining oxirida, gullar eng chiroyli ko'rinishda bo'lganda va gul ishlab chiqaruvchilar o'z san'atlarining barcha zavqlarini namoyish etishlari mumkin bo'lgan paytda o'tkazish an'anaga aylandi. 2018-yildan boshlab "Gullar bayrami" "Gullar festivali" deb o'zgartirildi va Xalqaro maqomga ega bo'ldi. Chunki, unda nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni mamlakatlarning gul ishlab chiqaruvchilari ham ishtirok eta boshladi. Rossiya, Turkiya, Niderlandiya va qo'shni davlatlar Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikistondan xorijiy mehmonlar taklif etilgan. Tadbirda 150 nafar gulchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, shuningdek, 300 dan ortiq havaskor gulchilar ishtirok etib, festival tarixida ilk bor 10 million tup gul ko'chatlari ekilgan. 2022-yil tashkil etilgan "Gullar festivali" 15 kun davomida o'tkazilgan. Shu vaqtgacha ushbu festival yetti kun mobaynida davom etgan. Mazkur xalqaro festivalda viloyatlaridan kelgan 250 nafar usta gulchilar hamda 22 ta xorijiy davlatdan tashrif buyurgan mohir gulchi mutaxassislar, landshaft dizaynerlari gulchilik borasidagi mahoratini namoyish etgan. Xalqaro gullar festivaliga tayyorgarlik ko'rish doirasida Namangan shahridagi 16 gektarlik Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi bog'da 8 gektar maydonga gul ekilgan. Yigirma kun davomida jami 1500 nafar hasharchilar 30 turdagi 16 million gullarni ekib chiqishgan. Festivalda 300 turdagi gullar namoyish etilgan. Bayram tantanalari yakunida korxona-tashkilotlar va gulchilar 12 ta nominatsiya bo'yicha taqdirlangan [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustda "Respublika hududlarida gulchilik va ko'chatchilikni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Farmon bilan O'zbekiston Turizm va madaniy meros vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Namangan viloyati hokimligi bilan birgalikda har yili aprel-may oylarida Xalqaro gullar bayramini o'tkazish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan [1]. Bu ham yurtboshimizning Namanganga bo'lgan alohida e'tiboridan dalolat beradi. Festivalning asosiy tadbirlari uyushtiriladigan Zahiriddin Muhammad Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'ida 15 million tup guldan iborat 200 ortiq turfa ko'rinishdagi kompozitsiyalar va ularni maxsus dizayn bo'yicha 150 turdan ortiq gul navlaridan foydalangan holda barpo etish ishlari amalga oshirilgan [6].

"Gullar shahri" nomini olgan Namanganda 2022-yilning 28-30-oktyabr kunlari Namanganda ilk bor "Xalqaro asal festivali" bo'lib o'tdi. Festival Turizm va madaniy meros vazirligi Namangan viloyati Bosh boshqarmasi va hamkor tashkilotlar tomonidan tashkillashtirildi. Festivalda "Afsonalar vodiysi" bog'ida respublikamiz hududlari hamda qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya va Qozog'iston davlatlaridan kelgan ikki yuzdan ortiq asalarichilar jam bo'ldi. Tadbir sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sanoatlashtirish, xalqaro tajriba almashuv platformasini yaratish, mavjud muammolar yechimini topishga qaratildi. Festival davomida "Afsonalar vodiysi" bog'ida asalarichilik

Date: 21st January-2026



mahsulotlari ko'rgazmasi ochildi. Xalqaro festival ishtirokchilari tadbirning birinchi kunida bir-biridan boy ko'rgazmalar bilan tanishgan bo'lsa, keyin esa asalarichilik sohasini rivojlantirish hamda jahon tajribasini keng jalb qilish maqsadida asal festivaliga tashrif buyurgan mahalliy va xorijlik asalarichilik sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga ilmiy-amaliy seminar treningi tashkil etildi. Seminarda asal mahsulotlari to'g'risida batafsil ma'lumot berish bo'yicha yaratilgan mobil ilova taqdimoti bo'lib o'tdi. Shuningdek, festival doirasida Namangan viloyatida asalchilikni yanada rivojlantirish va asal mahsulotlarini eksport qilish maqsadida viloyat asalarichilari va qirg'izistonlik asalarichilar o'rtasida B2B uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda 2023–2025-yillarga mo'ljallangan 5 million dollarlik eksport shartnomalari imzolandi. Quvonarlisi, Qirg'iziston Respublikasi Asalarichilari uyushmasi raisi Valeriy Muxtarovich Namanganni asal mahsulotlari yetishtirish poytaxti deb e'tirof etdi. E'tirof etish kerakki, festivalda saxovat tadbiri ham uyushtirilib, imkoniyati cheklangan, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga va yoshi keksalarga ming kilogramm asal bepul tarqatildi. Festival yakunida ishtirokchilar e'tiboriga turli tomoshalar taqdim etildi [7].

Bilamizki, xonatlas – necha yuz yillik tarixga ega matolarimizdan. O'zligimizni, o'zbekligimizni eslatib turuvchi bu matodan tikilgan liboslar ayollarimizga, qizlarimizga o'zgacha joziba, ko'rk, chiroy bag'ishlaydi. Qizlarimizdagi hayo, ibo atlas bilan o'zaro uyg'unlashib, ta'rifga so'z ojiz manzara hosil qiladi. Bu bejiz emas. Undagi yorqin ranglar, jilvakor naqshlar ona – tabiatimizdan nusxa olib yaratilgan. Shu sababli “Oila va xotin-qizlar qo'mitasi” tomonidan milliy liboslarimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o'ziga xos xususiyatlari mujassamligini namoyon etish milliy qadriyatlarimizni mazmunan boyitish maqsadida “Xonatlas Festivali” ni o'tkazish an'anaga aylangan [5;164-b]. 2022-yil Namangan shahri “Xonatlas festivali”ga mezbonlik qilgan. Bu bilan qiz-juvonlarimiz egnida yal-yal yonib, ular husnu tarovatini oshiradigan ipak matolarimizning iste'mol bozoridagi mavqeyini yanada mustahkamlash, yoshlar o'rtasida atlas va adras targ'ibotini kuchaytirish, ipakchi hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutilgan [8].

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mustaqillik yillarida Namangan viloyatida o'tkazilgan ommaviy tadbirlar bir necha yo'nalishda rivojlanganligi aniqlandi. Birinchidan, milliy bayramlar va an'anaviy marosimlar davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanib, keng ko'lamda nishonlana boshlandi. Navro'z bayramining umumxalq tantanasiga aylanishi bunga yaqqol misoldir.

Ikkinchidan, viloyatga xos bo'lgan “Gul bayrami”, Xalqaro asal festival” lari hududning madaniy brendiga aylandi. Ushbu tadbirlar orqali milliy liboslar, xalq amaliy san'ati va an'anaviy kasblar targ'ib qilindi. Uchinchidan, ommaviy tadbirlarning tashkiliy shakli zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashib, ularning ijtimoiy qamrovi kengaydi.

Xulosa

Date: 21st January-2026

Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida o'tkazilgan ommaviy tadbirlar tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etdi. Ular milliy qadriyatlarni tiklash, aholining ma'naviy birligini mustahkamlash hamda hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Respublika hududlarida gulchilik va ko'chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-5552394>
2. NamDVA. 645-fond, 1-ro'yxat, 310-ish, 108-varoq.
3. Sulaymonov M.Y., Payziyev K.S. Namanganda gul sayli: shaxsiy tashabbusdan xalqaro festivalgacha. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5-son, 2025. – B.239.
4. Хайдаров З. Наманган вилояти: Ўтмиш ва бугун. (1917-2013-йиллар). – Наманган, 2013. – 174 б.
5. Xusainova M. O'zbek xon atlasning jilosi. //Ustozlar uchun// 83-son, 1-to'plam, 2025. – B.164.
6. <https://xs.uz/uz/post/namanganda-ananaviy-gullar-bajrami-bu-jil-qachon-otkazilishi-malum-boldi>
7. <https://xs.uz/uz/post/khalqaro-asal-festivali-namangan-asal-mahsulotlari-etishtirish-pohtakhti-deb-etirof->
8. <https://www.xs.uz/uz/post/gullar-shahrida-khonatlas-festivali>
9. <https://championat.asia/oz/m/news/universiada-sport-musobaqalari-kecha-va-bugun>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gullar_festivali#cite_note-

